

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti
Iqtisodiyot va mehnat sotsilogiyasi kafedrası
Korxona iqtisodiyoti fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Asosiy fondlarning mohiyati va uning korxona faoliyatidagi o'rni

Bajardi: Qodirov O.

Tekshirdi: Djumayev B.

I-Bob. BOZOR MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI SHAROITIDA	
KIRISH ASOSIY FONDLARNING MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI.....	6
1.1. Asosiy fondlarning mohiyati va uning korxona faoliyatidagi o'rni.....	6
1.2. Korxonalarda asosiy fondlarni eskirishi, ularni baholash va ta'mirlash.....	12
1.3. Korxonalarda asosiy fondlar samaradorligini oshirishning mezonlari va ko'rsatkichlari tasnifi.....	20
II- “SAMGEOLTEXSERVIS” MCHJ DA ASOSIY FONDlardan FOYDALANISH KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	29
2.1. “Samgeoltexservis” MChJning iqtisodiy tavsifi.....	29
2.2. “Samgeoltexservis” MChJ ning asosiy fondlari holati tahlili.....	33
2.3. “Samgeoltexservis” MChJning asosiy fondlari samaradorligi tahlil.....	37
2.4. Asosiy fondlardan samarali foydalanish yo'llari	47
XULOSA	53
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	57

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligaga

KIRISH.....

erishgach, mamlakat hayotida ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini (FTT) jadallashtirish, aholining turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berdi va ro'y bermoqda. Bunga iqtisodiyotga kiritilgan yangi investisiyalar va mavjud moddiy-texnika asosini modernizasiya qilishdan tashqari boshqaruvning demokratik tamoyillarini kuchaytirish, korxona, firma va ularga tenglashtirilgan ishlab chiqarish tuzilmalarining xo'jalik faoliyati bilan bog'liq mustaqillik doirasini kengaytirish, siyosatning iqtisodiyotdan ustunligiga barham berish, inson faoliyatining barcha soha va tarmoqlarida tashabbuskorlik, izlanish va hokazolarning rivojlanishi ham keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "... O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va mavqeyini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini 2011 yildagi asosiy ustvor yo'nalish sifatida davom ettirishni taqozo etmoqda"¹.

Mustaqillik hamda barcha xo'jalik yuritish tizimining bozor munosabatlariga o'tishi iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini hisoblanuvchi korxona maqomining sezilarli ravishda o'zgarishiga sabab bo'ldi. Korxonalar endilikda davlatga tegishli bo'lgan paytlardagidan farqli o'laroq mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha faoliyatlarini direktiva ko'rsatkichlari asosida emas, balki O'zbekiston Respublikasi "Korxonalar to'g'risida"gi qonuni va bozor talablariga asosan mustaqil ravishda yuritmoqda. Ular o'zlariga kerak bo'lgan ishchi va xodimlar sonini mustaqil belgilamoqda, ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi, tejamkorlik rejimiga rioya qilish masalalari bilan shug'ullanmoqda, zamonaviy marketing va

¹ Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga muljallangan eng muhim ustvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // O'zbekiston ovozi. 2011 yil 22 yanvar soni.

menedjmentni yo'lga qo'ymoqdalar hamda joriy ishlab chiqarishni

KIRISH.....

rejalashtirmoqdalar va rivojlanishning zaruriy prognozlarini amalga oshirmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi milliy iqtisodiyotimizda miqdor va sifat o'zgarishlariga sabab bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti jamiyatni demokratiyalashtirish, iqtisodiyot salohiyatlarini mustahkamlash va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritishga yo'naltirilgan, bozor munosabatlariga o'tishning mamlakatimiz uchun maxsus ishlab chiqilgan modeli asosida rivojlanib bormoqda. Bu model O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan iqtisodiyotni islohot qilishning beshta muhim tamoyiliga asoslangan hamda xo'jalik faoliyati yurituvchi subyektlarning erkinligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni himoya qiluvchi zaruriy qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi – Iqtisodiyotni modernizasiyalash jarayonida korxonalarda asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda malakaviy bitiruv ishining asosiy **vazifalari** etib quyidagilar belgilandi:

- asosiy fondlarning mohiyati va uning korxona faoliyatidagi o'rnini aniqlash;
- korxonalarda asosiy fondlarni eskirishi, ularni baholash va ta'mirlash usullarini aniqlash;
- korxonalarda asosiy fondlar samaradorligini oshirishning mezonlari va ko'rsatkichlari tasniflash;
- “Samgeoltexservis” MChJning faoliyatini iqtisodiy jihatdan tavsiflash ;
- “Samgeoltexservis” MChJning asosiy fondlari holatini tahlil etish;
- “Samgeoltexservis” MChJning asosiy fondlaridan foydalanish samaradorligini tahlil etish;
- asosiy fondlardan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti – “Samgeoltexservis” MChJ ning xo’jalik faoliyati.

KIRISH.....

Tadqiqot predmeti – “Samgeoltexservis” MChJning xo’jalik faoliyatida amalga oshadigan iqtisodiy munosabatlar.

Malakaviy bitiruv ishining nazariy va metodologik asosi bo’lib, O’zbekiston Respublikasi Qonunlari, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O’zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo’nalishdagi bozor iqtisodiyotiga o’tishning o’ziga xos yo’li va bozor iqtisodiyotiga oid asarlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bozor munosabatlarini rivojlantirish hamda ko’p ukladli iqtisodiyotni barpo etish haqidagi qarorlari hamda xorijlik va vatanimiz olimlari olib borgan ilmiy ishlar xizmat qildi.

Mazkur ishda quyidagi **usullardan** foydalanildi: iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, sosiologik so’rov, analitik tahlil va boshqalar.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi: kirish, ikkita bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

Kirish qismida tadqiq qilinayotgan muammoning dolzarbligi asoslangan va uning o’rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifalari aniqlangan.

«Bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida asosiy fondlarning mohiyati va nazariy asoslari» nomli birinchi bobda asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va uning korxona faoliyatidagi o’rnini aniqlangan hamda korxonalarda asosiy fondlarni eskirishi, ularni baholash va ta’mirlash usullari ishlab chiqilgan. Shuningdek, mazkur bobda korxonalarda asosiy fondlar samaradorligini oshirishning mezonlari va ko’rsatkichlari tasniflangan.

«Samgeoltexservis” mchj da asosiy fondlardan foydalanish ko’rsatkichlari tahlili va samaradorligini oshirish yo’llari» nomli ikkinchi bobda “Samgeoltexservis” MChJning faoliyati iqtisodiy jihatdan tavsiflanib, korxonaning asosiy fondlari holati va ulardan foydalanish samaradorligi taqqoslama tahlil etilgan hamda korxonada asosiy fondlardan samarali foydalanish yo’llari bo’yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ishning xulosa qismida o'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha taklif va tavsiyalar

KIRISH.....

ishlab chiqilgan.

I-BOB. BOZOR MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI SHAROITIDA KIRISH.....

ASOSIY FONDRLARNING MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI

1.1. Asosiy fondlarning mohiyati va ularning korxona faoliyatidagi o'rni

Zamonaviy iqtisodiyot fani asosiy fondlarni ma'lum bir iste'mol qiymati ko'rinishida ijtimoiy mehnat asosida yaratiluvchi, ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan material omillari qatoriga kiritadi. Hozirgi bozor sharoitlarida korxona kuchi va vositalari yordamida yaratilgan asosiy fondlar ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish va ulardan foydalanishga faol ravishda ta'sir ko'rsatuvchi mulk hisoblanadi. Butun xalq xo'jaligi miqyosida asosiy fondlar mamlakatning milliy boyligini tashkil qiladi.

Asosiy fondlar korxona ishlab chiqarish vositalarining bir qismi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etada va o'zining natural-moddiy holatini yo'qotmaydi hamda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o'tkazib beradi. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni amortizasiya deb, ushbu jarayonda to'plangan mablag'lar esa amortizasiya ajratmalari deb ataladi.

Iqtisodiy maqsadlariga ko'ra, asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari o'z mohiyatiga ko'ra, korxonaning ishlab chiqarish potensialini tashkil qilib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:


- * ishlab chiqarish binolari va inshootlari;
- * uzatish qurilmalari;
- * quvvat mashinalari va uskunalari;
- * ishchi mashinalar va uskunalari;
- * transport vositalari;
- * o'lchov va tartibga solish asboblari va qurilmalari;

* foydalanish muddati bir yildan kam bo'lmagan va qonunchilikda belgilab

KIRISH.....

qo'yilgan qiymatlardagi asboblari va ishlab chiqarish inventari.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha mutaxassis va xodimlar soni bilan birgalikda, korxonaning ishlab chiqarish apparati deb ataladi.



1.1 - rasm. Korxona asosiy fondlarining tarkibi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlari korxona asosiy fondlarining ishlab

KIRISH.....

chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo'lib, shu sababli o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazmaydi. Bular qatoriga asosan korxona balansida turuvchi turarjoy (uy-joy fondi), oshxona, profilaktoriya, klub, bolalar bog'chasi va yaslilar, sport-sog'lomlashtirish va boshqa obyektlar kiritiladi. Madaniy-maishiy va sog'lomlashtirish yo'nalishidagi noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish asosiy fondlari bilan foydalanish muddati, natural shaklning saqlanishi, o'z qiymatini sekin-asta yo'qotishi kabi ko'p jihatlari bilan o'xshashdir.

Korxona asosiy fondlari tarkibini quyidagi 1.1-rasm ko'rinishida aks ettirish mumkin.

Mehnat predmetiga o'tkazuvchi ta'siriga ko'ra, asosiy ishlab chiqarish fondlari **aktiv** va **passiv** turlarga bo'linadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining passiv turiga bino va inshootlar, aktiv turiga esa quvvat mashina va uskunalari, ishchi mashina va uskunalar, transport vositalari, texnologik liniyalar, ya'ni biron-bir turdagi mahsulot yaratishda foydalaniluvchi mehnat qurollari kiritiladi.

Korxonaning aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlari eng harakatchan va ahamiyatli hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti davomida ko'plab korxonalarda aktiv ishlab chiqarish fondlarining salmog'i ortadi, ularning tarkibi va ko'rinishi o'zgaradi, asosiy fondlar guruh va turlarining ma'naviy eskirish tufayli almashinish sur'ati tezlashadi.

Ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va boshqa ijobiy o'zgarishlar sharoitlarida, ba'zan korxonaning asosiy fondlari, jumladan, ishchi mashinalar va uskunalar, ishlab chiqarish binolari, qurilmalar va hokazolar yetmay qoladi. Bunday hollar ro'y berganda korxona shartnoma asosida o'ziga kerakli bo'lgan asosiy fondlarni yollaydi va ular ijaraga olingan hisoblanadi. Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasida yuzaga keluvchi mulk munosabatlari **lizing** deb ataladi (ingl. Lease - ijara).

Asosiy fondlarning umumiy hajmida alohida guruhlarining qiymat bo'yicha o'zaro nisbati asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasini aks ettiradi hamda

amaliyotda foizlarda o'lchanadi. Korxona asosiy ishlab chiqarish fondlari

KIRISH.....

tuzilmasining, birinchi o'rinda uning aktiv qismini - mashina va asbob-uskunalarni ko'paytirishga yo'naltirilgan takomillashtirishdan manfaatdor bo'lishi lozim. Ularning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori shunchalik katta bo'ladi va aksincha.

Korxona asosiy fondlarining turlar bo'yicha tuzilmasi, ko'p jihatdan kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilmasi orqali, jumladan, ularning yangi qurilish va qayta ta'mirlash, amaldagi ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta qurollantirish bilan avvaldan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasiga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentrasiya qilish darajasi ham katta ta'sir o'tkazadi. Yirik korxonalar, ishlab chiqarishni fondlar bilan ta'minlashda va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishda kichik va o'rta korxonalarga qaraganda ko'proq imkoniyatga ega. Biroq kichik korxonalar harakatchanroq, ularning boshqaruvi moslashuvchanroq bo'lib, natijada ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish osonroq kechadi.

Asosiy fondlar alohida guruhlari o'rtasidagi nisbat asosiy fondlarning qaysi guruhi uchun mablag' sarflanishi jamiyat uchun ahmiyatsiz emas. Chunki korxonalarni ishlab – chiqarishda asosiy o'rin egalaydigan va ularning ishlab chiqarish imkoniyatlarini xarakterlaydigan asosiy fondlarning aktiv qismi - mashina va jihozlarning ko'payishi qiziqtiradi.

Asosiy fondlar aktiv qismining normal ishlashini ta'minlaydigan binolar, inshootlar, inventarlar asosiy fondlarning passiv qismiga kiradi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatida jihozlar hissasining oshishi boshqa teng sharoitlarda ishlab chiqarishning o'sishiga va fondlar qaytimining oshishiga olib keladi.

Shuning uchun asosiy fondlar strukturasi to'g'ri tashkil etish ishlab chiqarishning o'sishiga, tannarxning pasayishiga va korxona pul mablag'larining ortishga olib keluvchi shart sifatida qaraladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari strukturasiga asosiy ta'sir qiluvchi omillar

KIRISH.....

bo'lib, ishlab chiqarilayotgan mahsulot xarakteri, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mexanizasiya va avtomatlashtirilganlik darajasi hamda korxonaning iqlim va geografik joylashishi va xususiyatlari hisoblanadi.

Birinchi omil binolarning qiymati va o'lchamiga, transport vositalari va o'tkazish qurilmalarining hissasiga ta'sir qiladi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi -maxsus ishchi mashina va jihozlari hissasining oshishiga olib keladi. Xuddi shunday uchinchi va to'rtinchi omillar ham asosiy fondlar tuzulishiga ta'sir ko'rsatadi. Asosiy fondlar tarkibidagi bino va inshootlar hissasi iqlim sharoiti bilan ham bogliq.

Quyidagilar asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilishining yaxshilanishga olib keladi:

- * uskunalarni yaxshilash va zamonaviylashtirish;
- * uskunarlar xususan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan stanoklar, avtomatlashtirilgan va yarim avtomatlashtirilgan stanoklar, universal va murakkab stanoklar, avtomatik liniyalar hamda hisoblash dasturlash stanoklari tuzilishini takomillashtirish;
- * bino va inshootlardan optimal foydalanish, bo'sh turgan joylarga qo'shimcha uskunarlar o'rnatish;
- * korxonaning qurilish loyihalarini to'g'ri tuzish va qurilish rejasini sifatli qilib amalga oshirish;
- * ortiqcha va kam foydalaniladigan uskunalarni tugatish.

Asosiy fondlarni hisobga olish va rejalashtirish natural va pul shaklida olib boriladi. Asosiy fondlarni baholashdan oldin mashinalar soni, ularning unumdorligi, quvvati, ishlab chiqarish maydonining o'lchami va boshqa natural shakldagi miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlanadi. Bu ma'lumotlar tarmoq va korxona ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda, ishlab chiqarish dasturini rejalashtirishda, uskunarlar balansini tuzishda foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida uskunarlar

inventarizasiya qilinadi va ularni hisobdan chiqarish, hisobga kiritish amalga

KIRISH.....

oshiriladi.

«Korxona iqtisodiyoti»ga ekspluatasiya qilinayotgan asosiy fondlarning yoshi, birinchi o'rinda mashina va asbob-uskunalarining yoshi katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi paytda mashina va sanoat uskunalarini yosh bo'yicha guruhlashda taxminan quyidagi muddatlardan kelib chiqiladi: 5 yilgacha, 5 yildan 10 yilgacha, 10 yildan 15 yilgacha, 15 yildan 20 yilgacha, 20 yildan 25 yilgacha va hokazo. Mashina va uskunalarining ekspluatasiya muddati qanchalik yuqori bo'lsa, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari shunchalik past bo'ladi, mahsulotlar sifati pasayadi, bekor turib qolish va talofatlar ko'payadi hamda aksincha. Bundan tashqari, korxona asbob-uskunalaridan uzoq vaqt mobaynida foydalanilganida ta'mirlash uchun ham ko'p xarajatlar sarflanadi.

KIRISH.....

1.2. Korxonalarda asosiy fondlarni eskirishi, ularni baholash va ta'mirlash

Xo'jalik amaliyotida asosiy fondlar natural va qiymat ko'rinishida hisobga olinadi. Agar asosiy fondlarni natural baholash-ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish masalalarini hal qilish, asbob-uskunalarni ta'mirlash uchun ularning guruh va turlari bo'yicha grafiklar tuzish, shuningdek, ta'mirlash vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash imkonini bersa, qiymat bo'yicha baholash esa, asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarishni rejalashtirish, ularning mavjud hajmini aniqlash, amortizasiya hajmini belgilash, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini tahlil qilish va hokazolarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy fondlarni baholashning quyidagi usullari mavjud: **boshlang'ich qiymat bo'yicha** - asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmuidan iborat bo'lib, asosiy fondlar yoki ularning alohida qismlarini foydalanishga topshirish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan-ularni keltirish, o'rnatish kabi xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat.

Masalan, bitta mashina yoki uskunaning boshlang'ich qiymati – bu, korxonaning mazkur mashina yoki uskunani ma'lum bir sanada sotib olgan va bu haqda buxgalteriya hujjatlarida qayd qilingan sotib olish narxidir.

Fan-texnik taraqqiyoti natijasida asosiy fondlarni ishlab chiqarish shartlari va omillari ham o'zgarib bormoqda, binobarin, joriy bozor baholari va tariflari bilan bog'liq ravishda ularni ishlab chiqarish xarajatlari ham o'zgarib bormoqda.


Hozirgi kunda asosiy fondlar joriy baholari va tariflariga birinchi darajali ta'sir

KIRISH.....

qiluvchi omil bo'lib inflyasiya hisoblanadi.

Korxona balansida asosiy fondlar vaqt o'tishi bilan turli xil qiymatda aks etib qoladi. Ya'ni, xo'jalik yuritishning hozirgi sharoitida asosiy fondlarni faqat ularning boshlang'ich qiymati bo'yicha haqiqiy baholab bo'lmaydi va shuning uchun ularni qayta baholash va bir xil qiymatga o'tkazish zarurati to'g'iladi.

Tiklanish qiymati bo'yicha - asosiy fondlar yoki ularning biron-bir qismini (binolar, qurilmalar, mashinalar, ishlab chiqarish uskunalari va hokazo) hozirgi paytdagi inflyasiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash. Baholashning bu usuli obyektning hozirgi paytdagi qayta ishlab chiqarish davrida qancha turishini ko'rsatadi. Korxona asosiy fondlarining tiklanish qiymati, taftish va inventarizasiya paytida, mamlakat miqyosida va davlat chora-tadbiri sifatida esa, asosiy fondlarni qayta baholash paytida amalga oshiriladi.



1.2-rasm. Korxona asosiy fondlarini baholashning turlari.

KIRISH.....

Qoldiq qiymati bo'yicha - asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baholashdir. Boshqacha qilib aytganda, bu asosiy fondlarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga hali o'tkazilmagan qismidir. Korxonalar tomonidan foydalanilmaydigan hamda hisobdan chiqarish yoki sotib yuborish mo'ljallangan asosiy fondlar ham, ko'pincha qoldiq qiymati bo'yicha, mazkur xo'jalik yilidagi narxlarda baholanadi.

Korxona asosiy fondlarini baholashning turlarini quyidagi rasm ko'rinishda aks ettirish mumkin:

Iqtisodiyotning globallasuvi hamda hisob va hisobotlarning mukammallasuvi, jumladan, milliy hisob standartlarining jahon standartlari talablari darajasiga keltirilishi tufayli, garchi asosiy vositalar, asosiy fondlarning pul ko'rinishidagi ifodasi sifatida avvaldan qo'llanib kelgan bo'lsada, hayotimizga "asosiy kapital", "asosiy vositalar" kabi atamalar endilikda keng ravishda kirib kelmoqda.

Hozirgi kunda amaliyotda asosiy vositalarning korxona balansi va hisobotlarida aks ettiriluvchi (ya'ni, boshlang'ich, belgilangan tartibda o'tkaziluvchi qayta baholashdan keyin esa tiklanish), hisobga olish qiymati balans qiymati deb ataladi. Bundan asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning balans qiymatidan eskirish summasini ayirib tashlash yordamida topish mumkinligi anglashaladi.

Qabul qilingan baholash usuli va korxona balansida aks ettiriluvchi buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida, korxona asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati (F_{sr}) belgilanadi.

Asosiy fondlarni boshlang'ich yoki tiklanish qiymati bo'yicha baholashdan tashqari eskirish summasi ham hisobga olinadi. Asosiy fondlar jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirishi mumkin.

Jismoniy (moddiy) eskirish asosiy fondlarning birlamchi xislatlarini ishlab
KIRISH.....

chiqarishda foydalanish va tabiiy eskirish natijasida yo'qotishdan yuzaga keladi. U asosan bir xilda kechmaydi hamda ko'p jihatdan iqlimning ta'siri, asosiy fondlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish, jumladan, xodimlarning malakasiga ham bog'liq bo'ladi.

Jismoniy eskirishni (IF) quyidagi formula asosida hisoblab topish mumkin:

$$IF = \frac{T_{\phi}}{T_n} \times 100; \quad \text{yoki} \quad IF = \frac{I}{P_c} \times 100.$$


Bu yerda:

T_f - asosiy fondlarning haqiqiy xizmat qiluvchi muddati;

T_n - asosiy fondlar xizmat qilishi kerak bo'lgan normativ muddat;

I - hisoblangan amortizasiya summasi (eskirish summasi);

P_s – asosiy fondlarning boshlang'ich(qayta tashkil qilish) qiymati.



KIRISH.....

1.3-rasm. Asosiy fondlarning eskirish turlari.

Ma'naviy eskirish - asosiy fondlarning qadrsizlanishi yoki texnik jihatdan muddatidan avval ish qobiliyatini yo'qotilishidir. U ikki shaklda yuzaga keladi: birinchi shaklda asosiy fondlar ularning ishlab chiqarish qiymatlari pasayishi natijasida qadrsizlansa, ikkinchi shaklda asosiy fondlarning qadrsizlanishi yangi, fan-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida, yanada samaraliroq fondlarning paydo bo'lishi natijasida ro'y beradi. Asosiy fondlar ma'naviy eskirishining yuqorida keltirilgan shakllarini quyidagi tarzda aniqlash mumkin:

$$\text{IM}_2 = \frac{\Pi_{\text{H}} - \Pi_{\text{C}}}{\Pi_{\text{H}}} \times 100.;$$

Bu yerda:

P - asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati;

V - asosiy fondlarning tiklanish qiymati;

P_n- yangi texnikaning unumdorligi.

Asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish, ya'ni jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan asosiy fondlarning o'rnini iqtisodiy to'ldirish uchun korxona bu vositalar qiymatidan *amortizasiya ajratmalarini* ayirib tashlaydi hamda bu ajratmalar keyinchalik xarajatlar sifatida mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Amortizasiya ajratmalari quyidagi formula asosida aniqlanuvchi amortizasiya normalari (Na) asosida amalga oishiriladi:

$$H_a = \frac{A}{\Pi} * 100$$

Bu yerda:

A - amortizasiya ajratmalari;

P - asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati.

KIRISH.....

Yillik amortizasiya ajratmalari (AO) miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$A = \frac{\Pi + P_{\kappa} + M - O}{T}$$

Bu yerda:

R_{κ} – asosiy fondlar xizmat qilgan muddat davomida kapital ta'mirlashga sarflangan xarajatlar;

M - uskuna, mashina va qurilmalarni, ular xizmat qilgan davr mobaynida modernizasiya qilishga sarflangan xarajatlar;

O - asosiy fondlarning qoldiq (likvidasion) qiymati;

T - asosiy fondlarning xizmat qilish muddati, yil.

Amalda amortizasiya mablag'lari asosiy fondlarni to'liq qayta tiklash (renovasiya), kapital ta'mirlash va uskunalarni modernizasiya qilish uchun alohida ravishda yo'naltiriladi. Bundan kelib chiqqan holda amortizasiya normasi ikki qismdan - fondlarni renovasiya qilish (N_v) hamda kapital ta'mirlash va modernizasiya qilish (N_r) uchun ajratiluvchi mablag'dan iborat bo'ladi.

Birinchi holda amortizasiya normasi quyidagi formula:

$$H_{\epsilon} = \frac{\Pi - O}{T\Pi} \times 100;$$

ikkinchi holda esa:

$$H_p = \frac{P_{\kappa} + M}{T\Pi}$$

asosida aniqlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskirishi sababli, ularning ish qobiliyatini ta'mirlash orqali tiklash zaruriyati tug'iladi. O'z vaqtida ta'mirlash asosiy fondlar muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi


hamda ularning xizmat qilish muddati va unumdorligini oshiradi. Asosiy fondlarni

KIRISH.....

ta'mirlash kapital, o'rta va joriy turlarga bo'linadi. Bino va inshootlarni ta'mirlash o'z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag'larga ko'ra, mashina va uskunalarni ta'mirlashdan farq qiladi.

Masalan, mashina va asbob-uskunalar **kapital ta'mirlashda** ular to'liq qismlarga bo'linadi va eskirgan qismlar almashtiriladi. Uskunalar ikki marta kapital ta'mirlash orasidagi muddat ta'mirlash sikli deb ataladi. Mashina va uskunalar, qoidaga ko'ra, maxsus zavodlarda ta'mirlanadi.

O'rtacha ta'mirlash texnik mazmuni, murakkabligi, bajariladigan ish hajmi va davriyligiga ko'ra, kapital ta'mirlashdan farq qiladi hamda sarflanuvchi mablag', vaqt va kuchni nisbatan kamroq talab etadi. Joriy ta'mirlash kabi u ham mashina yoki uskunadan foydalanuvchi korxonaning o'zida amalga oshirilishi mumkin.



KIRISH.....

1.4-rasm. Korxona asosiy fondlarini qayta ishlab chiqarish bosqichlari

Joriy ta'mirlashda asosan asbob-uskunalar tozalanadi, moylanadi, tekshiriladi, mayda kamchiliklari bartaraf qilinadi, ya'ni uskunalarining foydalanishga doimiy tayyorligi ta'minlanadi.

Asosiy fondlarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish majmuasi rejali-oldini oluvchi ta'mirlash tizimiga (ROOT) birlashtiriladi va korxona bosh mexanigi tomonidan boshqariladi. Deyarli har bir korxonada ROOT o'tkazilishini qayd qilish jurnallari mavjud bo'lib, ularda profilaktika va ta'mirlash tadbirlarini o'tkazish tartibi va grafigi belgilab qo'yiladi.

Ta'mirlash ishlari tufayli korxona asosiy fondlarning joriy ekspluatatsiyaga tayyorligini ta'minlaydi. Biroq shu bilan bir qatorda korxona asosiy fondlarni yaratish, foydalanish, amortizasiya, qayta tiklash kabi bosqichlarni o'z ichiga oluvchi takror ishlab chiqarish amallarini doimiy ravishda bajarishga intilishi lozim. Bu bosqichlarni quyidagi chizma yordamida aks ettirish mumkin (1.4 - rasm)*.

Takror ishlab chiqarish siklida asosiy fondlarni yaratish jarayoni korxonadan tashqarida amalga oshiriladi hamda asosan qurilish sohasi, mashinasozlik, asbobsozlik hamda asosiy fondlarni yaratish bilan shug'ullanuvchi boshqa sohalar bilan bog'liq bo'ladi. Asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishning qolgan bosqichlari korxona hududida amalga oshiriladi. Biroq barcha hollarda ham asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish tufayli korxonalar ishlab chiqarishni

* Ушбу расмни матннинг электрон версияси ор=али слайд шаклида диапроектор орқали намойиш этиш мумкин. 2-илова

modernizatsiya qilish hamda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari

KIRISH.....

sharoitlarida iqtisodiy va texnik barqarorlikka erishishlarini ta'minlaydi.

1.3. Korxonalarda asosiy fondlar samaradorligini oshirishning mezonlari va ko'rsatkichlari tavsifi va tasnifi

Korxona ish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib, ularning kerakli hajmlarda va assortimentdagi asosiy fondlar bilan ta'minlanganligi, ularning aylanishini tezlashtirish va ulardan to'liq foydalanish hisoblanadi.

Korxonalarda asosiy fondlar samaradorligini aniqlovchi ko'rsatkichlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

Fondlar qaytimi - asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning umumlashtirilgan ko'rsatkichi. U ko'rsatilgan xizmat qiymatining asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rta yillik qiymatiga (asosiy kapital rentabelligi) nisbati sifatida aniqlanadi.

KIRISH.....

Tush.x

$$Fq = \frac{\text{-----}}{\text{Kaf}};$$

Kaf

bu yerda: Fq - fondlar qaytimi;

Kaf - asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rta
yillik qiymati.

Fondlar qaytimining oshishi servis tashkiloti moliyaviy natijalarining yaxshilanishidan dalolat beradi va asosiy kapitalga nisbatan siyosat to'g'ri yo'nalishda olib borilayotganligini ko'rsatadi. Fondlar qaytimining oshishi asosiy ishlab chiqarish fondlarining nisbiy tejamiga va ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmining oshishiga olib keladi.

Asosiy fondlardan foydalanish samarali bo'lib hisoblanadi, qachonki ko'rsatilayotgan xizmatlar yoki foydaning nisbiy qo'shimcha o'sishi, tahlil qilinayotgan davrda asosiy fondlar qiymatining nisbatan qo'shimcha o'sishidan yuqori bo'lsa.

Ko'rsatilayotgan xizmatlarning fondlar qaytimi oshishi hisobiga qo'shimcha o'sish hissasi qo'yidagicha aniqlanadi:

$$\Delta X = (Fq_1 - Fq_0) * Kaf_1;$$

Bu yerda: ΔX - xizmatlarning qo'shimcha o'sishi.

Fq_1 - hisobot davridagi fondlar qaytimi.

Fq_0 - o'tgan davrdagi fondlar qaytimi.

Kaf_1 - asosiy ishlab chiqarish fondlarining joriy
davrdagi o'rta yillik qiymati.

Fondlar sig'imi - fondlar qaytimining teskari ko'rsatkichi, har bir so'mlik

KIRISH.....

tushumga to'g'ri keladigan asosiy fondlar miqdorini tavsiflaydi:

$$FS = \frac{Kaf}{Tush.x};$$

Fondlar bilan qurollanish - servis tashkilotida ishlovchi har bir odamga to'g'ri keladigan asosiy fondlar miqdorini tavsiflovchi ko'rsatkich.

$$Fq = \frac{Kaf}{Is};$$

Bu yerda Is - tashkilotning o'rta yillik ishlovchilar soni.

Asosiy fondlar tuzilishining, texnik darajasining mahsulot ishlab chiqarishning oshishiga, mahsulot tannarxining kamayishiga ta'siri ulardan foydalanish darajasiga bogliq.

Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlarini quyidagi uch guruhga birlashtirish mumkin:

- * asosiy fondlardan ekstensiv foydalanish ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkichlar muddat bo'yicha ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi.

- * asosiy fondlardan intensiv foydalanish ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkichlar ularning quvvatidan foydalanish darajasini ifodalaydi.

- * asosiy ishlab chiqarish fondlaridan integral foydalanish ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkichlar barcha omillar - ekstensiv va intensiv omillar ta'sirini ifodalaydi.

Birinchi guruh ko'rsatkichlariga uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffisiyenti, uskunalardan foydalanishning smenalilik koeffisiyenti,

uskunalarining ish bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, uskuna ishlash vaqti

KIRISH.....

rejimining smenali koeffitsiyenti.

Uskunalaridan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti uskunalaridan haqiqatda foydalanilgan soatlar miqdorini rejadagi soatlar miqdoriga bo'lish yo'li bilan topiladi:

$$K_{\text{ekst}} = t_{\text{haq.f.}} / t_{\text{meyer.f.}};$$

Bunda: $t_{\text{haq.f.}}$ - uskunalaridan haqiqiy foydalanilgan vaqt,
soat;

$t_{\text{meyer.f.}}$ - uskunalarining norma bo'yicha ishlash muddati,
soat.

Uskunalaridan ekstensiv foydalanish smenalik koeffitsiyenti ko'rsatkichi bilan ham tavsiflanadi. Bu ko'rsatkich kun mobaynida, barcha smenalarda ishlatilgan uskunalar miqdorini eng katta smenada ishlatiladigan stanoklar miqdoriga bo'lish bilan aniqlanadi.

Korxonalarda smenalilik koeffitsiyentini oshirishga intilish kerak, chunki u qanchalik yuqori bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish ham ortadi.

Uskunalar ishining smenaliligini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- * ishchi o'rinlarining ixtisoslashganlik darajasini oshirish. Bu ishlab chiqarishning seriyaliligini va uskunalarining ish bilan ta'minlanganligini oshiradi;
- * ishlarning ritmligini oshirish;
- * bekor turib qolishlarni kamaytirish;
- * ta'mirlash ishlarini samarali yo'lga qo'yish;
- * asosiy va maxsus yordamchi ishchilar mehnatini mexanizasiyalash. Bu qo'shimcha ishchi kuchini ozod qilish va ularni ogir yordamchi ishlarga yoki uchinchi smenaga o'tkazish imkonini beradi.

Uskunalarining ish bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti ham uskunalaridan

KIRISH.....

vaqt bo'yicha foydalanishni xarakterlaydi. Bu ko'rsatkich asosiy ishlab chiqarishdagi jami mashina parklari uchun hisoblanadi. Bu ko'rsatkich mavjud uskunalar bilan barcha mahsulotlarni tayyorlash mehnat sigimining uning ishlash vaqti fondiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Uskunalar ishining smenalik ko'rsatkichi asosida uskuna ishlash_vaqti rejimining smenalik foydalanishi koeffitsiyenti ham hisoblanadi. Bu ko'rsatkich uskunalar ishining smenalik koeffitsiyentini ushbu korxonada o'rnatilgan smenaning davomiylik vaqtiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Biroq uskunalaridan foydalanish jarayonining boshqa tomonlari ham bor. Smena orasida vaqtincha kun mobaynida bekor turib qolishlarni bilishdan tashqari uskunalaridan haqiqatdan ish bilan ta'minlangan vaqtlarida qanchalik darajada samarali foydalanilayotganligini ham aniqlash kerak. Uskunalar to'liq ish bilan ta'minlanmagan paytda umuman mahsulot chiqarmasligi mumkin. Bunday hollarda biz uskunalaridan ekstensiv foydalanish ko'rsatkichlarini hisoblash bilan cheklansak yuqori natija olganday bo'lamiz. Lekin yuqorida ko'rganimizdek, uskunalaridan samarali foydalanish samaradorligi haqida to'liq xulosa chiqarishga kifoya qilmaydi.

Olingan natijalarni ikkinchi guruhga taalluqli bo'lgan, asosiy fondlar unumdorligi aks ettiruvchi asosiy fondlardan intensiv foydalanish ko'rsatkichlari bilan boyitish kerak. Bularning ichida eng muhim uskunalaridan intensiv foydalanish koeffitsiyenti ko'rsatkichidir.

Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun asosiy texnik uskunalar haqiqiy unumdorligini uning normativdagi unumdorligiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Buni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_{\text{int}} = V_h / V_{\text{meyoriy}} ;$$

Bunda: V_{haqiqiy} – uskunalar bilan vaqt birligi ichida haqiqatdagi

mahsulot ishlab chiqarish;

KIRISH.....

V_{meyoriy} – uskunalar bilan vaqt birligi ichida texnik
asoslangan mahsulot ishlab chiqarish.

Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlarining uchunchi guruxiga:

- uskunalardan integral foydalanish koeffitsiyenti;
- ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti;
- mahsulotlarning fondlar qaytimi va fondlar sigimi ko'rsatkichlari kiradi.


Uskunalaridan integral foydalanish koeffitsiyenti uskunalaridan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsiyentlari ko'paytmasi sifatida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich uskunalaridan foydalanishni vaqt va quvvati bo'yicha tavsiflaydi.


Bu ko'rsatkich uskunalaridan ham ekstensiv ham intensiv foydalanishdagi kamchiliklarni birgalikda aniqlaydi. Asosiy fondlardan samarali foydalanish ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib keladi. Shuning uchun asosiy fondlar samaradorligi ko'rsatkichini aniqlashda mahsulot ishlab chiqarilishida qatnashgan barcha asosiy fondlar qiymatini hisobga olish lozim. Bu ko'rsatkich asosiy fondlarning 1 so'miga qancha ishlab chiqarilgan mahsulot to'g'ri kelishini, ya'ni fondlar qatimini ifodalaydi. Uni hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$F_{\text{qaytim}} = T / F;$$

Bunda: T – tovar yoki yalpi, yoki sotilgan mahsulot hajmi, so'm;

F – korxonaning yillik o'rtacha asosiy ishlab chiqarish
fondlarining qiymati, so'm.





1.5-rasm. Fondlar qiymatini oshiruvchi omillar.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o'rtacha qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$F = F_1 + \frac{F_{\text{ishga tush.}} \times i_1}{12} - \frac{F_{\text{ishdan chiqish}} \times i_2}{12};$$

Bunda: F_1 – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati, so'm;

$F_{\text{ishga tush.}}$; $F_{\text{ishdan chiqish.}}$ – yil mobaynida ishga tushirilgan (hisobdan chiqarilgan) asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati, so'm;

i_1, i_2 – ishga tushirilgan (hisobdan chiqarilgan) vaqtdan

keyingi to'liq oylar soni.

KIRISH.....

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni oshiruvchi asosiy yo'nalishlar.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini xalq xo'jaligi miqyosida baholash qiyin. Bu muammoning yechimi mahsulot ishlab chiqarishning oshishiga, aholi istemolini to'laroq qondirilishiga, mamlakatda uskunalar badlansining oshishiga, mahsulot tannarxining kamayishiga, ishlab chiqarish rentabilligining oshishiga olib keladi.

Asosiy fondlardan nisbatan to'laroq foydalanish yangi quvvatlarni jalb qilish kabi ehtiyojlarning kamayishiga olib keladi.

Asosiy fondlardan foydalanishning yaxshilanishi ularning aylanish tezligining oshganligini ham bildiradi.

Xullas, asosiy fondlardan samarali foydalanish iqtisodiy islohotlarning muhim vazifasi hisoblangan - chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshishi, raqobat sharoitida mahsulotlarning tez realizasiya qilinishi bilan ham chambarchas bogliq.

Asosiy fondlardan samarali foydalanish ularning samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi intensiv va ekstensiv omillardan qanchalik to'liq foydalanilayotganligiga bogliq. Asosiy fondlardan foydalanishning ekstensiv o'sishi bir tomonidan kalendar davrda uskunalardan foydalanish vaqtini oshirishni taqozo qilsa, ikkinchi tomondan uskunalarining umumiy qiymatida ishlayotgan uskunalar hissasini oshirishni taqozo qiladi.

Uskunalaran foydalanish vaqtini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- bo'sh turib qolishlarni kamaytirish maqsadida uskunalarni ta'mirlash sifatini oshirish, o'z vaqtida asosiy ishlab chiqarishni ishchi kuchi bilan, xom-ashyo bilan, yonilgi va yarim fabirkatlar bilan ta'minlab turish;
- Kun mobaynida uskunalarining bekor turib qolishini qisqartirish, ularning ish koeffitsiyentini oshirish.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'li

KIRISH.....

ortiqcha uskunalar miqdorini kamaytirish va o'rnatilmagan uskunalarini ishlab chiqarishga tezroq jalb etish hisoblanadi. Mehnat vositalari katta qismining bekor turishi ishlab chiqarishni o'stirish imkoniyatlarining qisqarishiga, uskunalarining bekordan bekor jismoniy eskirishiga va uzoq vaqt ishlamasdan saqlanish natijasida ularning yaroqsiz ahvolga kelib qolishiga sabab bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan yaxshi saqlangan uskunalar ham ma'naviy eskirish natijasida jismoniy eskirgan uskunalar qatoriga qo'shilib qoladi.

Asosiy fondlardan foydalanishning intensiv o'sishi vaqt birligida uskunalarining ish bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishni taqozo qiladi. Uskunalarining intensiv ish bilan ta'minlanganligini oshirish uchun ishlayotgan mashina va mexanizmlarni modernizatsiyalash, ular ishining optimal rejimini o'rnatish lozim. Texnologik jarayonlarning optimal rejimda ishlash ishchilar soni va asosiy fondlarni ko'paytirmay turib mahsulot ishlab chiqarishni oshiradi va mahsulot birligiga sarflanadigan moddiy resurs xarajatlarni kamaytiradi.

Asosiy fondlardan foydalanish intensivligini oshirish quyidagilarni talab qiladi: ishlab chiqarish texnologiyalarini va mehnat qurollarini takomillashtirish; mehnatni ilmiy tashkil etishni va boshqarishni takomillashtirish; ishchilarning professionaligi va bilmini oshirish; ishlab chiqarish jarayonidagi nuqsonlarni bartaraf qilish.

Texnika rivojlanishi va shu bilan bogliq ravishda jarayonlarni intensivlashtirish chegaralanmagan. Shuning uchun asosiy fondlardan foydalanishni intensiv oshirish imkoniyatlari ham chegaralanmagan.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri uning tuzilishini takomillashtirish hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarishning qanchalik o'sishi asosiy sexlarga bogliq va shuning uchun ularning asosiy fondlar umumiy qiymatidagi hissasini oshirish lozim. Yordamchi ishlab chiqarishdagi asosiy fondlarning ortishi mahsulotlar fond sigimining oshishiga olib keladi, lekin bevosita mahsulot ishlab chiqarishning ortishiga olib kelmaydi. Biroq

yordamchi ishlab chiqarishning proporsional ravishda rivojlanishisiz asosiy sexlar

KIRISH.....

to'liq quvvat bilan ishlay olmaydi. Shuning uchun asosiy fondlarning optimal ishlab chiqarish tuzilishini aniqlash ulardan foydalanishni oshiruvchi asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshiruvchi muhim omil - korxonalarni xususiylashtirish va aksionerlik jamiyatlariga aylantirishdir. Ikkala holatda ham mehnat jamoasi asosiy fondlarning egasiga aylanadi, ishlab chiqarish vositalarini boshqarish, asosiy fondlarning ishlab chiqarish tuzilishini mustaqil shakllantirish, shuningdek korxona foydasini boshqarish imkonini beradi. Bu maqsadli investisiyalashni oshirishga yordam beradi.

II-BOB. “SAMGEOLTEXSERVIS” MCHJ DA ASOSIY FONDlardan FOYDALANISH KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

KIRISH.....

2.1. “Samgeoltexservis” MChJning iqtisodiy tavsifi

O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 6 dekabrda “Ma'suliyati cheklangan hamda qo'shimcha ma'suliyatli jamiyatlar to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi, “Samgeoltexservis” OAJ aksiyadorlari 16 yaanvar 2010 yildagi qarori va “Samgeoltexservis”Mgj ishtirokchilarining yig'ilishining 1-sonli 16 yanvar 2010 yildagi qarori asosida,shunigdek boshqa qonunlar va qonun xujjatlariga binoan Samarqand shaxar hokimligi xuzuridagi tadbirkorlik subyektlari ro'yxatidan o'tkazish insleksiyasi tomonidan 14.04.2005 yilda resstrda 1343 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan. “Samgeoltexservis” Mgjning “Samgeoltexservis” OAJning to'liq huquqiy vorisi hisoblanadi. Korxona o'z majburiyatlari bo'yicha javob beradi. Korxona manzili O'zbekiston. Respublikasi Samarqand viloyat Samarqand shaxar geofiziklar qo'rg'oni.Korxona o'z ishtirokgilarining yoki O'zbekiston. Respublikasining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi. Korxona mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishda tegishli huquq va majburiyatlariga ega.

Korxona o'zining mustaqil balansida hisobga olishgan aloxida mol – mulkiga, o'z nomidan huquq va majburiyatlariga ega bo'lishi,cudda da'vogar, javobgar va uchinchi shaxs bo'lishi mumkin.

Korxonani tashkil etish va faoliyat yuritishining asosiy maqsadi tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishdir. Korxona quyidagi faoliyat turlari bilan shug'ullanadi:

- turli xildagi GRPlarni tayyorlash va sotish;
- turli xildagi gazli,gorelkali plitalarni tayyorlash va sotish;
- oqova suvlarni biologik tozalovchi, ichimlik suvlarini zararsizlantiruvchi uskunalarni ishlab chiqarish, o'rnatish va sotish;

- xalq iste'mol mollarini qurilish materiallarini, konstruksiyalarni va

KIRISH.....

mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;

- birja lizing va vositachilik faoliyati hamda auksionlar ko'rgazmalar va yarmarkalar tashkil qilish;

- jismoniy va yuridek shaxslarga axborat xizmat–vositachilik, agintlik, konsigiasiol vakillik va dilerlik xizmatlarini ko'rsatish;

- sayyohlik va mexmonxona xizmati, sport va tomosha tadbirlarni tashkil qilish;

- yirik qamrovli reklama kampaniyalarini ishlab chiqish va o'tkazish;

- yog'ochni qayta ishlash, mebel tayyorlash;

- ilmiy va loyihaviy qayta ishlovlarni, ilmiy –tadqiqot ishlari natijasini ishlab chiqarishga tatbiq etish;

- yaxna ichimliklar ishlab chiqarish;

- keng tarmoqli xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish va sotish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa buyumlar, ya'ni qurilish materiallari, mebel, chinni va kulolchilik buyumlari, to'qimachilik, atir-upa va anjomlar;

- umumiy ovqatlanishni tashkil qilish, restoran, kafe, bar, oshxona, choyxonalarni barpo etish;

- qandolatchilik mahsulotlarini non va non mahsulotlarini tayyorlash va sotish.

Korxona O'zbekiston Respublikasi qonun xujjati bilan ruxsat berilgan boshqa har qanday turdagi faoliyat bilan hyech qanday cheklashlar va uni ustavga qo'shmasdan shug'ullanishi mumkin. Lisenziyalashni talab qiluvchi faoliyatni amalga oshirish uchun korxona belgilangan tartibda lissiziya oladi. Korxonada jami bo'lib 35 kishi faoliyat yuritadi.

Korxona o'z maqsadlarini bajarish uchun quyidagi huquqlar va vakolatlarga ega bo'ladi. Ko'char va ko'chmas mulkni yoki undagi ulushni u qayerda bo'lishidan qat'i - nazar sotib olish, ijaraga olish qo'lga kiritish, bariga qonuniy

vositalar bilan talab qilib olish, egalik qilish va u bilan boshqa muomalalarni bajo

KIRISH.....

keltirish, shuningdek sotish voz kechish yoki o'zgacha tarzda shunday mol – mulkin yoki aktivlarni yoxud ulardagi ulushlarni boshqarish. Korxona tomonidan taqdim etiladigan mollar va xizmatlarga narxlarni shuningdek bunda gi mollar va xizmatlarga haq to'lash shartlari mustaqil ravishda belgilanish O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'lgani kabi, xorijiy mutaxassislarni ham ishga yollash va O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga muofiq mehnatga haqto'lash shakli, tizimi stavkalari va usullarini mustaqil ravishda belgilash.

Korxona ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi korxona boshqaruvining oliy organi hisoblanadi. Korxona ishtirokchilari umumiy mutloq vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- korxona faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, shuningdek tijorat tashkilotlarining boshqa birlashmalarida ishtirok etish tug'risida qaror qabul qilish;
- korxona ustav foizining miqdorini o'zgartirish;
- korxona ta'sis xujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish;
- yillik hisobotlar va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash;
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Korxona tomonidan mol – mulk sotib olish va uni o'z tasarufidan chiqarish bilan bog'liq yirik bitimlar tuzish;
- korxona ustav foidaga pulsiz shaklda kiritiladigan hissalarini pullik bahosini belgilash.

Ustav foizining miqdorini o'zgartirish, korxona ustav foida miqdorini ko'paytirish. Korxona qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risidagi qarorlar. Korxonaning bariga ishtirokchilari tomanidan bir ovozdan qabul qilinadi. Korxona ishtirokchilari umumiy yig'ilishining mutloq vakolatlari kiritilgan masalalar yuzasidan qaror ishtirokchilarning umumiy ovozlari sonining kamida 2/3 qismidan iborat ko'pchilik ovozlari bilan boshqa masalalar yuzasidan qaror esa ishtirokchilarning umumiy ovozining ko'pchiligi bilan qabul qilinadi. Korxona ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig'ilishida korxona faoliyatining yillik natijalari tasdiqlanadi.

Korxona ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi moliya yili

KIRISH.....

tugagandan keyin kechi bilan olshi oy ichida o'tkazilishi kerak, qoida xujjatlarida belgilangan muddat ichida korxona ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishgan yoki uni utkazishni rad etish qaror qabul qilingan bo'lsa, korxona ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi, uni o'tkazish talab qilayotgan organlar yoki shaxslar tomonidan chiqarilishi mumkin. Bunday holda korxonaning ijro organi mazkur organlar yoki shaxslarga korxona ishtirokchilarining manzillari ko'rsatilgan ro'yxatni taqdim etishi shart. Umumiy yig'ilishga tayyorgarlik ko'rish, uni chaqirish va o'tkazish xarajatlari korxona ishtirokchilari umumiy yig'ilishining qaroriga binoan korxonaning mablag'lari hisobdan qoplanishi mumkin. Korxona ishtirokchilariga axborot va materiallar korxona ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini chaqiruvchi organ yoki shaxslar tomonidan korxona ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida gi xabarnoma bilan birgalikda yuborishi shart. Ko'rsatilgan axborot va materiallarning to'liq matni korxona ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi utkazilishidan oldin o'ttiz kun mobaynida korxona ijro etuvchi organining binosida tanishish uchun korxonaning barga ishtirokchilariga tqdim etilishi kerak.

“Samgeoltexservis” mchj ustav foizi 16.01.2010 yildagi umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan topshirish qabul qilish dalolatnomasi asosida berilgan. Korxona ustav foida uning ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatidan iborat va korxona faoliyatini amalga oshirish uchun 266128000 ming so'mni tashkil etadi. Pul qimmatli qog'ozlar, o'zga ashyolar yoki mulkiy huquqlar, yoxud pul bahosiga ega bo'lgan boshqa shaxsga o'tkaziladigan boshqa huquqlar korxonaning ustav foidaga qo'shiladigan hissalar bo'lishi mumkin. Korxonaning ishtirokchilari tomonidan korxonaning ustav foidaga qo'shiladigan pulsiz hissalarinig pul bahosi korxona ishtirokchilari umumiy yig'ilishining barga ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilnadigan qarori bilan tasdiqlanadi. Korxonani qayta tashkil etish korxona ishtirokchilari umumiy yig'ilishinig qarori binoan amalga oshirildi.

KIRISH.....

2.2. “Samgeoltexservis” MChJ ning asosiy fondlari holati tahlili

Korxonada asosiy vositalar miqdorining yetarli bo'lishi va holati faoliyat natijalariga juda katta ta'sir qiladi. Asosiy vositalar xolatini aniqlaganda ularning korxonaning umumiy mablag'lardagi hissasi, asosiy vositalar tarkibi, yaangilanish va eskirish ko'rsatkichlarini hisoblash lozim.

Korxona asosiy vositalarini umumiy mablag'laridagi hissasi, asosiy vositalari tarkibi, yaangilanish va eskirish ko'rsatkichlarini hisoblash lozim.

Korxona asosiy vositalarning umumiy mablag'laridagi hissasi (AV.u) asosiy vositasi dastlabki qiymatini balansning jami summa nisbatan foizlarda hisoblanadi. Bu ko'rsatkich xalq xo'jaligi tarmoqlariga bog'liq..

Asosiy vositalarning umumiy mablag'larda ulushi (AV.u) quyidagicha ifodalanadi.

$$AV.u = \frac{A\hat{A}.100}{A};$$

“Samgeoltexservis” korxonasida bu ko'rsatkich 2008 yilda quyidagicha bo'lgan:

$$AV.u = \frac{374057.100}{1007230} = 37,13\%;$$

2009 yilga kelib esa bu ko'rsatkich:

$$AV.u = \frac{381211.100}{1220608} = 31,23\% \text{ tashkil qilgan.}$$

2010 yilda asosiy vositalarni umumiy mablag'lardagi ulushi quyidagicha bo'ladi.

$$AV.u = \frac{67375.100}{782613} = 8,60\%;$$

KIRISH.....

Korxonalar asosiy vositalari ikki gruxga bo'linadi. Asosiy vositalarning mashina asbob-uskunalar kabi turlari ishlab chiqarishda faol qatnashadi. Shuning uchun bunday asosiy vositalarni faol asosiy vositalar deyiladi. Asosiy vositalar faol qismining umumiy (AVf) asosiy vositalardagi hissasini asosiy vositalar faol qismini (AVf) asosiy vositalar umumiy summasiga nisbati bilan aniqlanadi.

$$\text{Bunda } AVF = \frac{\sum \text{AVf}}{\sum \text{AVf}};$$

$$2009 \text{ yilda } AVF = \frac{284383}{381211} = 0,746;$$

$$2010 \text{ yilda } AVF = \frac{105001}{135210} = 0,783;$$

Asosiy vositalarning eskirishi koefisinti asosiy vositalar eskirish summasini (AVEs) barga asosiy vositalar dastlabki qiymatiga nisbatan topiladi va bu ko'rsatkich korxonaning asosiy vositalari qanchalik eskirganini ifodalaydi.

$$AvEs = \frac{\sum \text{AVEs}}{\sum \text{AVEs}};$$

Bu ko'rsatkich 2009 yilda quydagicha bo'lgan.

$$AvEs = \frac{138335}{381211} = 0,362;$$

$$2010 \text{ yilda esa } AvEs = \frac{30849}{139210} = 0,221;$$

